

TALABALARNING MANTIQUIY TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK JIHATLARI

SHamuratova Eleonora Aralbaevna
NDPI akademik litsey

Elektron darslik (o'quv qo'llanma) ta'lim sifatini oshirishga xizmat qiladigan, zamonaviy informatsion texnologiyaning mahsuli hisoblanadi. Elektron darsliklar yangi ta'lim shakli-masofaviy ta'limning asosiy o'quv-uslubiy yadrosini tashkil etadi. O'qitish samaradorligini oshirishda zamonaviy informatsion-pedagogik texnologiyalar, jumladan, elektron darsliklardan foydalanish alohida o'rin egallaydi. Elektron darslikning an'anaviy darslikdan asosiy farqlaridan biri uni ishlab chiqarishda, majmuaviy va jamoaviy yondoshuvning mavjudligidir. Haqiqatdan ham, agar an'anaviy darslik bitta muallif tomonidan yaratilishi mumkin bo'lsa, elektron darslik bir yoki bir necha mualliflar tomonidan emas, balki bir qator mutaxassislardan iborat alohida ijodiy jamoa tomonidan yaratiladi.

Elektron darslik-kunduzgi bo'lim talabalarining bilim olishi va ayniqsa, masofaviy o'qish shakllarida mustaqil ishlash uchun zarur, chunki:

- o'rganilayotgan materialni an'anaviy qog'ozga chop etilgan o'quv adabiyotlariga nisbatan boshqacha: induktiv yondoshish, eshitish, emotsional xotiralarga ta'sir qilish yo'llari bilan materialni yetkazish hisobiga uni tushunishni yengillashtiradi;
- talabalarining ehtiyojiga, tayyorgarlik darajasiga, intellektual imkoniyatlariga va ambitsiyalariga mos holda ko'niktiradi;
- fanning mohiyatiga diqqatni jalb etgan hamda ko'p sondagi misollarni ko'rib chiqish va ko'proq masalalar yechishga imkon yaratgan holda, murakkab hisoblashlar va almashtirishlardan xalos etadi;
- o'rganishning hamma bosqichlarida o'z-o'zini tekshirib ko'rish uchun keng imkoniyatlar beradi;
- ishni chiroyli va aniq rasmiylashtirilishiga hamda uni o'qituvchigafayl yoki qog'ozga chop etgan holda topshirishga imkon beradi;
- o'ta toqatli ustoz rolini cheklanmagan tushuntirishlar, sanoqsiz takrorlashlar, eslatishlarni taqdim qilgan holda bajaradi.

Taylaqov fikricha [1] elektron darslik ixtisoslashgan (maxsus) auditoriyalarda o'tkaziladigan amaliy mashg'ulotlar uchun juda qulay, chunki u:

- kompyuterli qo'llab-quvvatlashlardan foydalangan holda, katta miqdordagi masalalarni yechishga, topilgan yechimlarni va ularning grafik talqinini tahlil qilish uchun zarur bo'lgan vaqtdan ozod bo'lishiga;
- o'qituvchiga o'zida rahbarlik va maslahatchi (konsultant) rolini qoldirgan holda, kompyuter oldida mustaqil ish shaklida mashg'ulot o'tkazishga;
- o'qituvchiga tekshirish tadbirlari tarkibi va murakkablik darajalarini belgilagan holda kompyuter yordamida talabalar bilimini tez va samarali nazoratdan o'tkazishga imkon beradi.

Elektron darslik o'qituvchi uchun juda qulay, chunki u:

ma'ruza va amaliy mashg'ulotlarda o'zining hohishi bo'yicha hajmi jihatidan kichik, ammo tarkibi bo'yicha o'ta muhim bo'lgan materiallarni yetkazishiga, auditoriya mashg'ulotlari doirasidan tashqari o'rganish mumkin bo'lgan masalalarni mustaqil shug'ullanishlari uchun qoldirgan holda yetkazishga imkon beradi;

- uy topshiriqlarini, turli hisoblashlarni va nazorat ishlarini tekshirish kabi mashaqqatli ishlardan ozod etadi;

- auditoriyada bajariladigan va uyga topshiriladigan misol va vazifalar nisbatini optimallashtirishga imkon beradi;
- talabalar bilan uy topshiriqlari va nazorat tadbirlariga oidlashni individuallashtirishga imkon beradi.

Mantiqiy tafakkurni rivojlantirishga qaratilgan elektron darslikka qo'yiladigan pedagogik-uslubiy talablariga quyidagilarni keltirish mumkin:

1. Elektron darslik-o'quv materialini taqdim etishning tushunchali, obrazli va harakatli komponentlarining o'zaro bog'liqligiga tayangan holda qurilishi kerak.
 2. Elektron darslik o'quv materialini yuqori tartibli tuzilma ko'rinishida ta'minlashi kerak. Fanlararo mantiqiy o'zaro bog'liqlik hisobga olinishi kerak.
 3. Elektron darslikda ta'lim oluvchiga o'quv materialini bosqichma- bosqich o'zlashtirish uchun turli xildagi nazoratlarni amalga oshirish imkoniyati yaratilishi kerak.
- Elektron darslikda barcha amalga oshiriladigan hisoblashlar vizuallashtirishning ochiq tizimiga ega bo'lishi, o'zgaruvchan o'rganiladigan ob'ektlar yoki jarayonlarning bog'liqligi namoyish qilinishi kerak.

Elektron darsliklarga qo'yiladigan texnik va texnologik talablar:

Elektron darslikka qo'yiladigan texnik talablar:

- lokal va boshqa axborot tashuvchilarda va tarmoqli tartibotda harakatlanishi;
- multimediya va telekommunikatsion texnologiyalarning zamonaviy vositalarini maksimal qo'llash;
- ishlash qobiliyatining puxtaligi va turg'unligi;
- geterogenli (elektron darslik spesifikasiyasida ko'zda tutilgan turli xildagi kompyuterli va boshqa shunga o'xshash vositalarda turg'un ishlashi);
- nuqsonlarga turg'unligi;
- resurslardan samarali va to'g'ri foydalanish;
- testlashtirilganligi.

Elektron darslikning turli xildagi ko'rinishlariga nisbatan maxsus texnologik talablar qo'llanishi mumkin:

- turli xildagi elektron tashuvchilarni qo'llash imkoniyati;
- elektron va qog'ozli tashuvchilarni kombinatsiyalashtirish imkoniyati;
- lokal va tarmoqli tartibotda ishlash imkoniyati;
- tarmoqda fizik lokallashtirilgan va tarqatilgan komponentlarning miqdori;
- o'qitishni boshqarish jarayoni va umumiy axborot bazalarining vositalari miqdori;
- jamoaviy ishlarni tashkil qilish vositalari miqdori (o'qituvchi yoki boshqa ta'lim oluvchilar bilan teskari aloqa).

Barcha toifadagi elektron darsliklarga yana quyidagi talablar qo'yiladi:

Elektron darslikning nomi, ishlab chiquvchilarning yoki mualliflarning familiyasi, ismi, sharifi, qisqacha annotatsiya, foydalanuvchilar guruhi, ko'paytirish va tarqatishga taqdim etayotgan tashkilot nomi, darslikning qaysi toifaga kirishi haqida protokol nomeri, kompyuterning tizimli talabi haqida ma'lumotga ega bo'lishi kerak. Mazkur ma'lumotda elektron tashuvchilar haqida kerakli informatsiya keltirilishi mumkin. Elektron darslikka oid ma'lumot quyidagilarni o'z ichiga olishi kerak:

Band bo'yicha ma'lumotlarni, yaratuvchilarning kontakt adreslarini, ma'lumot manbai (vab resurslar, portallar va boshqalar) va foydalanilgan adabiyotlar.

Elektron darsliklarni yaratishda quyidagi bosqichlarga amalqilish tavsiya etiladi:

- fanga oid manbalarni tanlab olish;
- manbalardan foydalanish va qayta ishlash huquqi to'g'risidashartnomalar tuzish;
- mundarija va tushunchalar ro'yhatini ishlab chiqish;
- bo'limlardagi (modullardagi) matnlarni qayta ishlash va yordamberish bo'limini tuzish;
- gipermatnni elektron shaklda amalga oshirish;
- kompyuterli qo'llab-quvatlanishni ishlab chiqish;
- materiallarni multimediyali ob'ektlarga keltirish uchun tanlab olish;
- tovush jo'rligida amalga oshirishni ishlab chiqish va tadbiq etish;
- materialni vizuallashtirish uchun tayyorlash;
- elektron darslikdan foydalanishga tayyorlash;
- o'qitish metodikasini ishlab chiqish.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Taylaqov N.I., Taylaqova D.N. Elektron ta'limni joriy etishning maqsad va vazifalari // Malaka oshirish tizimi uzviyligini takomillashtirishda axborot xizmati: muammo va yechimlari. Mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – Toshkent, 2016. – B. 30-32.
2. Mirsanov U.M. Dasturlash texnologiyalarni elektron ta'lim resurslar erdamida o'qitishga tayaniladigan tamoyillar // Studencheskiy vestnik. Nauchnyy jurnal. – Moskva, – № 17(115), May 2020. – b. 76-77.
3. Taylakov U.K. Elektron darslik ta'lim maqsadlari uchun eng samarali vosita // O'zbekistonda pedagogika fani va uning istiqbollari mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari. T.N.Qori Niëziy nomidagi O'zbekiston Pedagogika fanlari ilmiy tadqiqot instituti, Toshkent-2019. – B. 248-249
4. Bespalov P.V. Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim kontekstida kompyuter kompetensiyasi // J. Pedagogika. – M.: 2013. - 4-son. – 41-45-betlar.